

## Ta'lim Tizimida O'quvchilarning Oliy Ta'lim Muassasasi Va Mutaxassisliklarini Tanlashining Ichki Va Tashqi Omillari

**Tohirova Zuhbar MuhammadSodiq qizi**

Andijon davlat universiteti Ijtimoiy-iqtisodiyot fakulteti, Amaliy psixologiya yo'nalishi 3-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Yaponiyaning ta'lim tizimi va undagi o'ziga xos xususiyatlar, shuningdek, o'quvchilarning oliy ta'lim muassasasi va mutaxassislik tanlashiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar tahlil qilinadi. Yaponiyada ta'limning iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan qanday rol o'ynashi va jamiyatda ta'lim darajasining yuqori baholanib, o'quvchilarning oliy ta'limga kirish motivatsiyasi kuchli ekanligi ko'rib chiqilgan. Muallif, shuningdek, Yaponiyada ta'lim jarayonidagi raqobat, stress, testga yo'naltirilgan o'qitish va ijodiy fikrlashga yetarli e'tibor berilmasligi kabi muammolarni ham yoritadi. Maqolada xalqaro PISA va TIMSS tadqiqotlari natijalari Yapon o'quvchilarining ta'lim ko'rsatkichlariga aloqador natijalari bilan solishtirilib, yuqori o'quv motivatsiyasining ahamiyati ko'rsatib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Yapon ta'lim tizimi, oliy ta'lim motivatsiyasi, o'quvchilar intilishi, ichki va tashqi omillar, ta'limda intizom, ijodiy fikrlash, o'qitish usullari.

Yaponiya ta'lim tizimi dunyoda yuqori saviyasi, o'ziga xos tamoyillari va qattiq intizomi bilan ajralib turadi. Yaponiyada ta'limga katta e'tibor beriladi va bu ularning iqtisodiy va ijtimoiy muvaffaqiyatga sezilarli hissa qo'shib kelmoqda .

Yaponiyada ta'lim bosqichlari 4 bosqichni qamrab oladi. Bunda yuqori o'rta maktab 15-18 yosh oralig'ida. Yuqori o'rta maktab majburiy emas, ammo, o'quvchilarning ko'pchiligi unda qatnashadi, chunki, u oliy o'quv yurtiga kirish uchun muhimdir. Bu bosqichda fanlar kengayadi va ixtisoslikka ko'proq e'tibor qaratiladi. Bu bosqichni tugatgach, o'quvchilar kollej yoki, universitetga kirish imtihonini topshirishadi.

Yaponiyada o'qituvchilar yuqori malakaga ega bo'lishi talab qilinadi. Ular uchun har yili trening va malaka oshirish dasturi amalga oshiriladi. Yaponiya maktablararo va Oliy ta'lim muassasasiga kirish imtihonlari juda qattiq . Kirish imtihonlari yuqori o'quv yurtlariga o'qishga kirish uchun katta ahamiyatga ega va bu jarayon o'quvchilarda katta raqobatni yuzaga keltiradi. Ko'pchilik o'quvchilar 'sinov qabari' deb ataladigan o'quv bosqichidan o'tishadi, yani, imtihonlarga juda jiddiy tayyorgarlik ko'radilar va bu jarayon kuchli intizom talab etadi .


Yaponiyada o'quvchilarning oliy ta'limga bo'lgan qiziqishlari Yapon o'quvchilari uchun oliy ta'limga kirish juda katta ahamiyatga ega. Bu qiziqish o'ziga xos Yapon madaniyati va ijtimoiy tuzilmadan kelib chiqadi va jamiyatda ta'lim darajasi yuqori baholanib quyidagi xususiyatlar ahamiyatga olinadi:

1. Jamiyatdagi ta'lim darajasining ahamiyati -Yaponiyada ta'limga juda katta e'tibor beriladi va jamiyatda yuqori darajadagi ta'lim olgan shaxslarning mavqei yuqori baholanadi. Yaxshi ta'lim olgan odamlar obro'li kasblarga ega bo'lishlari va jamiyatda o'zlariga yuqori mavqe yaratishlari mumkin. Bu esa ota-onalar va o'quvchilar orasida oliy ta'limga nisbatan kuchli qiziqishni uyg'otishiga sabab bo'ladi.

2. Iqtisodiy barqarorlik - Oliy ta'lim darajasi yuqori bo'lgan insonlar odatda barqaror ishga ega bo'lish va yuqori daromad olish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Bu esa o'quvchilarda iqtisodiy barqarorlik va mustaqil hayot kechirish uchun oliy ta'limga qiziqishni oshiradi.

3. Shaxsiy qiziqish - Ko'plab o'quvchilar shaxsiy qiziqishlarini ham hisobga olishadi ammo, bu Yapon jamiyatida kamroq uchraydigan omil hisoblanadi. Biroq, zamonaviy Yapon yoshlari shaxsiy qiziqishlari va qobiliyatlariga tayangan holda mutaxassislik tanlashmoqda.

Tadqiqotimiz davomida Yaponiyada o'quv motivatsiyasini o'lchash bo'yicha olib borilgan so'rovnamalar natijasi tahlili bizga quyidagi muhim ma'lumotlarni taqdim etdi (1-rasmga qaralsin):



**1-rasm. O'quv motivatsiyasining foizlarda ifodalanishi**

- ✓ ta'limni kelajakda yaxshi ish topish vositasi deb hisoblagan talabalar 68,3%
- ✓ shaxsiy qiziqish va o'zini rivojlantirish 18,9%
- ✓ tashqi motivatsiya ota ona bosimi bilan %

Motivatsiyaga ta'sir etuvchi omillar:

- ✓ Ota-onaning maslahat va qo'llab-quvvatlovi asosiy motivatsiya manbai deb hisoblaydigan talabalar 75%.
- ✓ Oliy o'quv yurtlarining nufuzi va ishga joylashish imkoniyatlarini asosiy omil sifatida ko'rgan talabalar 65%.
- ✓ Ijtimoiy mas'uliyat yoki jamiyatga xizmat qilish istagi motivatsiya manbai bo'lgan talabalar 20%.

Dars va o'qitish materiallari bilan qoniqish:

- ✓ Darsdan yetarlicha qoniqish olmayotgan talabalar 45%.
- ✓ Interaktiv va texnologik o'quv materiallarini afzal ko'radigan talabalar 55%.
- ✓ Darslarni qiziqarli va ishtirokchilarni jalb qiluvchi deb baholaydigan talabalar 35%.

Yaponiya ta'lim tizimi nufuzli va ko'plab ijobiy natijalar bilan tanilgan bo'lsada bazi kamchiliklar ham mavjud. Quyida ulardan bir nechtasi keltirilgan:

1. Testlarga haddan tashqari e'tibor:

Yaponiyada ta'lim tizimi ko'p hollarda test va imtihonlarga tayyorgarlik jarayonlariga asoslangan. Ko'pgina o'quvchilar maktabdan tashqari qo'shimcha kurslarga borishlari kerak bo'ladi. Bu esa ortiqcha stress va bosimga olib keladi.

2. O'quvchilarga kuchli bosim va stress:

Yaponiya ta'lim tizimida raqobat juda yuqori bo'lib, bu o'quvchilarda stress va ruhiy bosimni oshiradi. O'quvchilar nufuzli oliygohga kirish uchun ko'p energiya va vaqt sarflashlari lozim.

3. Ijodiy fikrlash va mustaqil ta'limning cheklanishi:

Ta'lim tizimi ko'proq tayyor bilim va ma'lumotlarni yodlashga asoslangan bo'lib, ijobiy fikrlash va o'zini mustaqil rivojlantirish imkoniyatini cheklaydi. Ko'plab maktablarda o'qitish jarayonlarida an'anaviy usullar qo'llaniladi. Bu esa o'quvchilarning yangi g'oyalarini yaratish ko'nikmasini rivojlantirishga to'sqinlik qiladi.

4. Individuallikning cheklanishi va jamoatchilikka urg'u:

Yapon ta'lim tizimida jamoaviy hamkorlik va tartib-intizomga katta e'tibor qaratiladi. Biroq, bu o'quvchilarning individuallikni rivojlantirish va o'z qobiliyatlarini va shaxsiy ehtiyojlarini qondira olmayotganidan shikoyat qilishadi.

5. Uzoq dars va o'qitish soatlari:

Yapon maktablarida o'qitish soatlari uzoq bo'lib, o'quvchilar darslardan tashqari qo'shimcha mashg'ulotlarga ham boradi. Bu esa ularning dam olishi va ijtimoiy hayotiga kam vaqt qoldiradi, shuningdek, ularning ruhiy va jismoniy charchashlariga sabab bo'ladi.

Yapon o'quvchilarining 75% oliy ta'limga katta qiziqish bildiradi. Bu ko'rsatkich yaponiyaning ta'lim tizimida o'quvchilarning intilishi yuqori ekanligini ko'rsatadi.

Jahon miqiyosida PISA(programme for International student assessment) va TIMSS (trends in international mathematics and science study) kabi xalqaro tadqiqotlar o'quvchilarning o'qishga qiziqishini baholashda keng qo'llaniladi. Bu tadqiqotlar natijalariga ko'ra, Yapon o'quvchilari matematika va tabiiy fanlarda yuqori natijalarni ko'rsatib, o'z akademik ko'nikmalariga katta ahamiyat berishadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoni.
2. Бурлачук Л.Ф. Психодиагностика: Учебник для вузов. 2-е изд. – СПб.: Питер, 2008. - 384 с